|   |  | Qurilishning barcha bosqichlarida xavfsizligi, ekologik va sanitariya talablariga rioya qilish  |
|   |  | G'isht va toshdan devor terishda mustahkamlik va xavfsizlikka oid belgilashgan maxsus qoidalarni bilish.  |
|   |  | Devorning o'lchamlari, qatorlarning aniqligi, g'ishtlar va toshlar o'rtasidagi oraliqlar va ixtiyoriy qatorlar orasidagi masofani bilishi.  |
|   |  | Devorlar va qurilish chizmalarini o'qish, ularga muvofiq harakat qilish.  |
|   | B2.03.3-<br>G'isht-toshdan<br>turli<br>konstruksiyalarni<br>terish | <b>Mehnat harakatlari:</b>  |
|   |  | 1. Qurilish maydonini tozalash, xalaqit beradigan buyumlarni olib tashlash  |
|   |  | 2. Asbob-uskunalarni (qo'l qurollari, o'lchov vositalari) belgilangan joyga joylashtirish.  |
|   |  | 3. Shaxsiy himoya vositalarini kiyish (shlem, qo'lqop, ko'zoynak va h.k.).  |
|   |  | 4. G'isht va toshlarni ishlashga tayyor holatda joylashtirish.  |
|   |  | 5. Qorishma (rastvor) tayyorlash sement, qum va suvni aralashtirish.  |
|   |  | 6. Tayyor materiallarni qulay joyda yig'ish.  |
| 7. Devor teriladigan chiziqni belgilash (razmetka qilish).                    |  |   |
| 8. Loyiha yoki chizmaga asosan o'lchovlar olish.                              |  |   |
| 9. Nivelir yoki suvli daraja bilan gorizontallik va vertikallikni tekshirish. |  |   |
| 10. G'isht terishda qorishma (rastvor)ni tekis va bir xil qalinlikda yoyish.  |  |   |

|  |  |   |
|--|--|---|
|  |  | 11. Birinchi qatorni aniq va to'g'ri terish (bu eng muhim bosqich).                                   |
|  |  | 12. Har bir g'isht yoki toshni rastvor ustiga qo'yish va joyiga mustahkam tushirish.                  |
|  |  | 13. G'ishtlar orasidagi oraliqlarni bir xil saqlash.  |
|  |  | 14. Yarim g'isht tosh kerak bo'lsa, uni maxsus qurol bilan kesib tayyorlash.                          |
|  |  | 15. Har bir qatorni ilgari terilgan qatoriga nisbatan chaplashtirib (perevyazka bilan) joylashtirish. |
|  |  | 16. Qorishma (rastvor)ni qator orasiga qo'yish va g'ishtlarni joylash.                                |
|  |  | 17. Har bir 2–3 qatorda vertikal va gorizontol holatni tekshirib turish.                              |
|  |  | 18. Qatorlar orasida ortiqcha chiqsa, uni olib tashlash.  |
|  |  | 19. Asboblar bilan ishlayotganda ehtiyotkorlik zarur.   |
|  |  | 20. Barcha harakatlar xavfsizlik qoidalariga muvofiq bajarilishi kerak.                               |
|  |  | 21. Yuqoridagi qatorlarda ishlayotganda balandlikdagi ish xavfsizligiga amal qilish shart.            |
|  |  | <b>Ko'nikmalar:</b>   |
|  |  | G'isht va toshlarni loyiha bo'yicha to'g'ri joylashtirish.  |
|  |  | Qatorlarni to'g'ri va bir xil balandlikda terish.   |
|  |  | Qavatlarni pyerevyazka usulida joylash.   |
|  |  | Qorishma (rastvor)ni tekis va bir xil qalinlikda surta olish.   |
|  |  | G'isht va toshni kerakli shakl va o'lchamga keltirish uchun kesish usullarini bilish.                 |
|  |  | Qurilish chizmalarini o'qish va tushunish.  |
|  |  | Devorning gorizontol va vertikal holatini tekshirib, to'g'rilash.                                     |
|  |  | O'lchov vositalari bilan aniq hisob-kitob qilish (o'lchov lentasi, metr, nivelir va h.k.).            |
|  |  | Turli xil g'isht (keramik, beton) va tosh (granit, qumtosh)larning bilish.                            |
|  |  | Qorishma (rastvor)ni to'g'ri tayyorlash va mo'ljalga qarab turini tanlash.                            |
|  |  | Qaysi material qaysi konstruksiya uchun mos ekanini aniqlash.   |
|  |  | Ishni tizimli va rejali tashkil etish.  |
|  |  | Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish (shlem, qo'lqop, ko'zoynak, respirator).                     |
|  |  | Balandlikda, tor joyda yoki og'ir sharoitda xavfsiz ishlashni bilish.                                 |
|  |  | Qatlamlar orasidagi xatolarni to'g'rilash va mustahkamlikni ta'minlash.                               |
|  |  | Jamoadam ishlash va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik qilish.                                      |
|  |  | Ish joyini tartibli, toza va xavfsiz saqlash  |

|  |                                   |  |
|--|-----------------------------------|--|
|  |                                   | <b>Bilimlar:</b>   |
|  |                                   | Devor terishda ishlatiladigan asosiy qurollar chizg'ich, bolg'a, kirka va boshqalar.   |
|  |                                   | Qorishma (rastvor)lar (sement-qum qorishmasi, ohakli, glinali va boshqalar) va ularning tayyorlash usuli va qo'llanish sohasi. |
|  |                                   | Asboblarning tuzilishi, vazifasi va to'g'ri ishlatish usuli.   |
|  |                                   | Asbob-uskunalarining ish holatini aniqlash va texnik xizmat ko'rsatish bilimlari.  |
|  |                                   | G'isht va tosh turlari (granit, qumtosh, ohaktosh) va ularni qayerda ishlatish mumkinligi.                                     |
|  |                                   | Qurilish loyihalarini (chertyojlarini) o'qish va ularga amal qilish.   |
|  |                                   | Devorning o'lchamlari, tartibi, konstruktiv yechimlarini tushunish.  |
|  |                                   | Loyihada ko'rsatilgan belgilari, belgilangan materiallar va texnologiyalarga amal qilish.                                      |
|  |                                   | Devor terishning bosqichma-bosqich texnologik jarayonlari.   |
|  |                                   | Qatorlarni to'g'ri terish, (perevyazka) usuli va mustahkamlikni ta'minlash usullari.   |
|  |                                   | Devorda eshik, oyna, arka, burchak va shunga o'xshash konstruksiyalarni to'g'ri tashkil qilish usullari.                       |
|  |                                   | Devorning vertikal va gorizontal holatini saqlash qoidalari  |
|  |                                   | Qurilishda shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish (shlem, ko'zoynak, qo'lqop, botinka va h.k.).                              |
|  |                                   | Balandlikda ishlashda xavfsizlik qoidalari   |
|  |                                   | Ish joyini xavfsiz tashkil etish qoidalari.  |
|  |                                   | Asboblarni ishlatishda ehtiyotkorlik choralari.  |
|  |                                   | Ish joyini xavfsiz tashkil etish qoidalari.  |
|  | <b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b> | 1. O'z harakatlari, ish natijalari va uchinchi shaxslarning harakatlari uchun javobgarlik                                      |
|  |                                   | 2. Zarur bo'lganda, muammolarni hal qilish uchun mustaqil qarorlar qabul qilish.   |
| <b>Texnik va/yoki texnologik talab</b> |                                   | Qo'l asboblari, elektr asboblari, o'lchash va sinov uskunalari, yordamchi asboblari narvonlar, maxsus asboblari                |

|  |  |                       |
|--|--|-----------------------|
| Kasbning nomi:   | Futerlovchi-g'isht teruvchi  |                       |
| Mashg'ulot nomining kodi:                                  | 71130  |                       |
| TMR bo'yicha malaka darajasi:                              | 3  |                       |
| Malakani baholashga qo'yiladigan talablar                  | Tavsiya etiladi  |                       |
| Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:           | Kamida 1 yillik amaliy ish tajribasi<br>Qurilish sohasida amaliy stajirovka  |                       |
| Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar | <p>18 yoshga to'lgan shaxslar ishlashga ruxsat etiladi.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda majburiy dastlabki (ishga kirishda) va davriy tibbiy ko'rikdan (tekshiruvdan), shuningdek navbatdan tashqari tibbiy ko'rikdan (tekshiruvdan) o'tish.</p> <p>Ishlab chiqarish faoliyatiga xalaqit beradigan doimiy kasalliklar yoki nogironlikning mavjud emasligi.</p> <p>Mehnatni muhofaza qilish talablari bo'yicha o'qishda qatnashish va bilimlarini sinovdan o'tkazish, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnomada qatnashish, ish joyida malaka oshirish va mustaqil ishlash uchun ruxsat olish.</p> <p>Xavfsizlik texnikasi talablari bo'yicha o'qish va bilimlarni sinovdan o'tkazish.</p> <p>Tegishli dasturga muvofiq yong'in xavfsizligi talablari va yong'in-texnik minimumi bo'yicha o'qish va bilimlarni sinovdan o'tkazish;</p> <p>Texnik ekspluatatsiya qoidalariga talablari bo'yicha o'qish va bilimlarni sinovdan o'tkazish;</p> <p>Tegishli nazariy va amaliy mashg'ulotlardan so'ng bilimlarni sinovdan o'tkazish;</p> <p>Belgilangan me'yorlar va talablarga muvofiq maxsus kiyim va boshqa shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalariga rioya qilish;</p> <p>Balandlikda ishlar olib borilgan taqdirda balandlikda ishlashga ruxsatning mavjudligi;</p> |                       |
| Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:                      | Boshlang'ich professional ta'lim   |                       |
| Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:             | 1)O'rta maxsus ta'lim<br>2)Umumiy o'rta ta'lim+norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba  |                       |
| Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:                   | -  |                       |
| Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:                    | -  |                       |
| Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:                         | <b>TMR bo'yicha malaka darajasi:</b>   | <b>Kasbning nomi:</b> |
|  |  |                       |
| <b>Mehnat funksiyalarining tavsifi</b>                     |  |                       |
| <b>Kodi va nomi</b>  | <b>Mehnat vazifalari</b>   |                       |
|  | <b>O'qitish natijalari</b>   |                       |
|  | <b>Mehnat harakatlari:</b>   |                       |
|  | 1. Ishchilarni yo'riqnomadan o'tkazish va vazifalarni belgilash  |                       |

|   |  |   |
|---|--|---|
| <p>D1.3<br/>Ish o'rnini tashkil qilish ishchilarni yo'riqnomadan o'tkazish va texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasini ta'minlash</p> | <p>D1.01.3<br/>Ishlarni yo'riqnomadan o'tkazish va vazifalarni belgilash</p> | 2. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi talablariga rioya qilish                                  |
|   |  | 3. Yo'riqnomadan o'tganligi haqida jurnalda imzo quyish   |
|   |  | 4. Ogohlantiruvchi belgilarni o'rnatish ("Xavfli hudud", "Kaska kiying" va h.k.)                      |
|   |  | 7. Kerakli joylarda futerovka maxsus izolyatsiya qatlamlarini qoplash                                 |
|   |  | 8. Har kuni ish boshida asbob-uskunalarining holatini tekshirish                                      |
|   |  | 9. Elektr asboblarini ishlatishda ularning izolyatsiyasini va yorqinligini tekshirish                 |
|   |  | 10. Yoritish va ventilyatsiya tizimlarini ta'minlash (agar yopiq hududda bo'lsa)                      |
|   |  | 11. Ish jarayonidagi xavfli joylar va harakatlar haqida yozma va og'zaki yo'riqnoma o'tish            |
|   |  | 12. Terilgan futerovka qatlami mosligini tekshirish   |
|   |  | 13. Noxush holatlarda zudlik bilan rahbarga xabar berish va xavfsizlik choralarini ko'rish            |
|   |  | 14. Asbob-uskunalarni yig'ishtirish, ish joyini tozalash  |
|   |  | 15. Har hafta texnika xavfsizligi bo'yicha profilaktik suhbatlar o'tkazish                            |
|   |  | <b>Ko'nikmalar:</b>   |
|   |  | Futerlovchi-g'isht terishda xavfsiz ish sharoitini yaratish   |
|   |  | Mehnat vazifalariga to'g'ri yondashish va ishni to'g'ri tashkil etish                                 |
|   |  | Mutaxassislar (qurilish, texnik, muhandis) bilan hamkorlikda ishlash                                  |
|   |  | Balandlikda va tor joylarda ishlash uchun maxsus asboblardan foydalanish                              |
|   |  | Baland joylarda va ichiga kirib ishlaydigan tor joylarda xavfsiz ishlash                              |
|   |  | Yonish, qulash yoki haroratdan zararlanish xavflarini oldini olish                                    |
|   |  | Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish (issiqqa chidamli kiyim, qo'lqop, respirator va h.k.)        |
|   |  | Terilgan g'isht yoki futerovkaning tekisligi, izolyatsiyasi va mustahkamligini tekshirish             |
|   |  | <b>Bilimlar:</b>  |
|   |  | Futerli-g'isht terish tartibi   |
|   |  | Xavfsiz ish o'rnini yaratish bo'yicha talablar  |
|   |  | Futerlovchi-g'isht teruvchi issiqlikka chidamli materiallari  |
|   |  | Shamot, mullit, bazalt, magnezit, andaluzit va boshqa futerovka materiallarining turlari va xossalari |

|   |  |   |
|---|--|---|
|   |  | Qorishma (rastvor)lar turlari va ularni tayyorlash tartibi  |
|   |  | Texnik chizmalar, konstruksiya sxemalarini o'qish va talqin qilish qoidalari  |
|   |  | Yuqori haroratdagi muhitda ishlash xavflarini tushunish   |
|   |  | Shaxsiy himoya vositalari: qo'lqop, issiqqa chidamli kiyim, nafas niqobi, ko'zoynak va h.k. bilan ishlash tartibi               |
|   |  | Balandlikda va yopiq joylarda ishlashda xavfsizlik qoidalari  |
|   |  | Futerovka devorlari qalinligi, burchaklar, izolyatsiya qatlamlari joylashuvi kabi ko'rsatmalari                                 |
|   | D1.02.3<br>Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi talablariga rioya qilish | <b>Mehnat harakatlari:</b>  |
|   |  | 1. Balandlikda ishlashda mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablari va me'yorlariga rioya qilish                |
|   |  | 2. Balandlikda yoki tor joyda ishlashda mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablari va me'yorlariga rioya qilish |
|   |  | 3. Balandlikda ishlashda qurilish kamari (straxovka) taqish   |
|   |  | 4. Ish boshlashdan oldin uskuna yoki inshootning ichki qismini tekshirish va tayyorlash   |
|   |  | 5. Issiqlikdan himoyalovchi maxsus kiyimda ishlash  |
|   |  | 6. Futerlovchi-g'isht teruvchi yuqori haroratli muhitda ishlashda mehnat xavfsizligi qoidalari talablariga rioya etish          |
|   |  | 7. Shaxsiy himoya vositalarining (SHHV) to'liqligini tekshirish   |
|   |  | 9. Asbob-uskunalarni tekshirish   |
|   |  | 11. Issiq detallarga tegmaslik, issiq havo va bug'dan himoya choralari ko'rish  |
|   |  | 12. Yonuvchi moddalar (masalan, sham yoki issiq suv) bilan ishlayotganda yong'in xavfsizligiga rioya qilish                     |
| 13. Yopiq joyda (pech ichi, mo'ri ichi) ishlayotganda kislorod yetishmasligiga qarshi nafas niqobi taqish |  |   |
| 14. Baland joyda ishlayotganda jips bog'lanish vositalari himoya belbog'laridan foydalanish               |  |   |
| 15. Yuqori haroratli (1000°C gacha) muhitda ishlayotganda teridan himoya qiluvchi kiyimda bo'lish         |  |   |
| 16. Asbob-uskunalarni yig'ishtirish, nosozlarini ajratib qo'yish  |  |   |
| 17. Shaxsiy himoya vositalarini tozalash va alohida joyda saqlash   |  |   |

|  |  |  |
|--|--|--|
|  |  | 18 Ish joyini xavfsiz va toza holatda qoldirish  |
|  |  | 20. Eski futerovkani demontaj qilish   |
|  |  | <b>Ko'nikmalar:</b>  |
|  |  | Futerovkada g'ishtlarni turli usullar bilan to'g'ri va mahkam terish (qatorli, shaxmat uslubi, aylanma shaklda)            |
|  |  | Texnik loyihalar, chertejlar va qurilish sxemalari bilan ishlash   |
|  |  | G'ishtlarni kerakli o'lcham va shaklga keltirib kesish va joylash  |
|  |  | Futerovka qatlamlarining qalinligi, shakli va o'rnatish  |
|  |  | Balandlikda va yopiq joylarda ishlash uchun xavfsiz ish uslubida ishlash   |
|  |  | Issiq muhitda ishlashda himoya vositalaridan foydalanish (qo'lqop, kiyim, ko'zoynak, nafas niqob)                          |
|  |  | Yonish, issiqlik zarbasi, gazlanish xavfini oldini olish   |
|  |  | Terilgan futerovkada yoriq, egrilik, tekissizlikni aniqlash  |
|  |  | Sifatli terish uchun zarur bo'lgan o'lchov va tekshiruv usullarini qo'llash  |
|  |  | Mutaxassislar bilan jamoaviy ishlash (muhandis, ustalar)   |
|  |  | Asboblarni toza, xavfsiz va aniq ishlatish   |
|  |  | Bolg'a, shablon, keskich kabi qurollardan to'g'ri foydalanish  |
|  |  | <b>Bilimlar:</b>   |
|  |  | Xavfsiz ish o'rnini yaratish bo'yicha talablari  |
|  |  | Turli materiallarning ishlash harorati va foydalanish sharoitlari bo'yicha asosiy xususiyatlari                            |
|  |  | Qorishma (rastvor)lar turlari, ularning tarkibi va tayyorlash texnologiyasi  |
|  |  | Texnik chizmalar va konstruksiya sxemalarini o'qish hamda talqin qilish asoslari   |
|  |  | Yuqori haroratli muhitda ishlash bilan bog'liq xavf omillari va ularning oldini olish choralarini                          |
|  |  | Shaxsiy himoya vositalari (qo'lqop, issiqqa chidamli kiyim, nafas niqobi, ko'zoynak va boshqalar)dan foydalanish qoidalari |
|  |  | Balandlikda va yopiq joylarda ishlashda mehnat xavfsizligi qoidalari   |
|  |  | Futerovka devorlari qalinligi, burchaklari, izolyatsiya qatlamlarining joylashuvi bo'yicha texnik talab va ko'rsatmalar    |
|  |  | Issiq muhitda, balandlikda yoki yopiq joyda ishlash xavflari   |

|  |   |   |
|--|---|---|
|  |   | Yonish, gaz chiqishi yoki qurilish buzilishi xavflarini oldini olish choralarini  |
|  | <b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b>   | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ish joyida mehnat muhofazasi qoidalariga qat'iy rioya qilish, o'zini va hamkasblarini ehtiyot qilish</li> <li>2. Devorning yuk ko'taruvchi yoki to'suvchi bo'lishini aniqlab, nomaqbul buzishdan saqlanish</li> </ol> |
| <p>D2.3<br/>Futerlovchi g'isht terish uchun materiallarni qabul qilish va samarali ishlatish</p> | <p>D2.01.3 Futerlovchi g'isht terish uchun materiallarni qabul qilish</p> | <b>Mehnat harakatlari:</b>  |
|  |   | 1. G'isht uchun yaroqli xom ashyolarni qabul qilish   |
|  |   | 2. Qabul qilinayotgan futerlovchi g'ishtar sifatini tekshirish  |
|  |   | 3. Futerlovchi-g'ishtar turlarga ajratish   |
|  |   | 4. Qorishma (rastvor) ularni tayyorlash tartibi   |
|  |   | 5. Futerlovchi g'ishtar qabul qilishda material turi va miqdorini aniqlash  |
|  |   | 6. Transport vositalaridan futerlovchi g'ishtar kran, avtopogruzchik yordamida tushirish  |
|  |   | 7. Futerlovchi g'ishtar turiga ko'ra ajratish (turi, o'lchami, shakli). omborxonaga joylashtirish   |
|  |   | 8. Yoriqlar, buzilishlar, standart o'lchamlarga mosligini tekshirish  |
|  |   | 9. G'ishtar qabul qilish sifati bir xil bo'lishi va standartlarga muvofiq bo'lishiga e'tibor berish   |
|  |   | 10. Qancha g'isht kerak ekanligini aniq hisoblash, ishlatishdan oldin materiallarning ortiqcha ishlatilishini kamaytirish   |
|  |   | 11. Yuklarning tashishida aniq reja va mexanik uskunalardan foydalanish. Har qanday noaniqliklar yoki shikastlanishlarning oldini olish   |
|  |   | 12. G'ishtar hammasini bir martada to'g'ri joylashtirish, o'rnatish jarayonlarning to'g'ri qatori va me'yorga muvofiq bajarilishini ta'minlash  |
|  |   | <b>Ko'nikmalar:</b>   |
|  |   | Futerlovchi g'ishtar yaroqliligini sifatini tekshirish  |
|  |   | Futerlovchi g'isht xom ashyolarini qabul qilish   |
|  |   | Futerlovchi g'ishtar yaroqliligi sifatini tekshirish  |
|  |   | Shamot g'ishti, olovga chidamli glina va boshqa futerovka materiallarining tashqi ko'rinishi va sifatini tanib olish  |
|  |   | Yoriq, maydalanish, shakli buzilgan yoki namlangan g'ishtar ajratish  |
|  |   | Materiallarni turiga qarab, quyosh, yomg'ir va namlikdan himoya qilib to'g'ri saqlash   |
| Olovga chidamli materiallarni quritish va zarurat bo'lganda ehtiyot choralarini ko'rish          |   |   |
| <b>Bilimlar:</b>   |   |   |
| Futerlovchi g'ishtar turlari va xossalari  |   |   |
| Terish uchun keltirilgan futerlovchi g'ishtar sifatini tekshirish tartibi                        |   |   |

|  |   |   |
|--|---|---|
|  |   | Qurilish va futerovka materiallar turlari   |
|  |   | Shamot g'ishti, magnezit, andaluzit, olovga chidamli glina kabi materiallarning xususiyatlari va ishlatish sohalari |
|  |   | Har bir materialning issiqlikka chidamliligi va mexanik bardoshi  |
|  |   | Olovga chidamli sement va boshqa maxsus qurilish yelimlarining tarkibi  |
|  |   | Shaxsiy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish qoidalari  |
|  |   | Qurilish texnikasi bilan ishlashdagi xavfli holatlar va ularni bartaraf qilish choralari                            |
|  |   | Ularning qotish vaqti, ishlash harorati va ishlatish usuli  |
|  |   | Mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilish  |
|  | D2.02.3<br>Futerlovchi g'isht terish ishlarini bajarish | <b>Mehnat harakatlari:</b>  |
|  |   | 1. G'isht terishda loyihaviy reja va ish cherteglari asosida ishlash  |
|  |   | 2. Qorishma (rastvor) ni tayyorlash   |
|  |   | 3. Qorishma (rastvor)ni to'g'ri tekis surish, g'ishtlarni zarur shaklda joylashtirish                               |
|  |   | 4. G'isht qatlamlar orasidagi bo'shliqlarni to'ldirish va tekislash   |
|  |   | 5. G'isht terishda qatorlarni to'g'ri terish, (perevyazka) usulini qo'llash   |
|  |   | 6. G'ishtlarni kesish, formalash va joyiga tushirish  |
|  |   | 7. Futerovka g'isht terish usullari: qatorli terish, (perevyazka), to'g'ri va aylanma devor terish                  |
|  |   | 8. Futerovka ishlarini bajarish g'isht terish harorat va bosimga chidamli devor yoki qoplama qatlamini terish       |
| 9. Kerakli joylarda izolyatsiya qatlamlarini qo'yish (masalan, keramzit, bazalt tola)              |   |   |
| 10. G'ishtlar terilishi uchun tegishli yo'nalishlar, burchaklarni to'g'ri belgilash                |   |   |
| 11. Turli shakl va o'lchamdagi futerovka g'ishtlarini joyiga ko'ra tanlash                         |   |   |
| 12. Futerovka g'isht terish loyiha asosida vertikal va gorizontal tekislikda to'g'ri joylashtirish |   |   |
| 13. G'ishtlar o'rtasidagi bo'shliqlar va ixchamlikni asosida terish                                |   |   |
| 14. G'ishtlarni maxsus issiqlikka chidamli eritma yoki maxsus qorishma bilan terish                |   |   |
| 15. Eski futerovkani olib tashlash (agar kerak bo'lsa)   |   |   |
| 16. Portlash yoki zaharli moddalarga qarshi ehtiyot choralari                                      |   |   |

|  |  |  |
|--|--|--|
|  |  | 17. Harorat yuqori bo'lgan muhitda ishlash uchun maxsus kiyimlar va himoya vositalaridan foydalanish   |
|  |  | 18. Issiqlik izolyatsiya materiallarini joylash  |
|  |  | 19. Teshiklar, ventilyatsiya kanallari uchun maxsus joylarni qoldirish   |
|  |  | 20. Futerlovchi g'isht (ya'ni o'ta haroratli muhitda ishlaydigan pechlar va qurilmalarning ichki devorlarini qurish uchun ishlatiladigan g'isht) terish uchun materiallarni qabul qilish jarayonida mehnat harakatlari aniq va xavfsizlik qoidalariga muvofiq tashkil etilishi zarur |
|  |  | 21. Mehnat xavfsizligi qoidalariga muvofiq futerovkani mustahkamlash   |
|  |  | 22. Futerlovchi g'isht terishda qo'lqop, ko'zoynak, kiyim-bosh majburiy bo'lib, ulardan foydalanish ishning xavfsiz va samarali foydalanish qoidalari bilish   |
|  |  | <b>Ko'nikmalar:</b>  |
|  |  | Futerovchi g'ishtlar yaroqliligini sifatini tekshirish   |
|  |  | G'isht turlarini tanish va farqlash futerovka g'isht turlarini ajratish  |
|  |  | G'isht terish texnologiyasi "Qatlam terish", "Zinama-zina", "Archa shakli" kabi usullar bo'yicha g'isht terish   |
|  |  | Qurilish va montaj uskunalaridan armatura, changli mashinalar, nivelir, ruletk va boshqa uskunalaridan to'g'ri foydalanish   |
|  |  | Issiqlik chidamli qoplamalar va eritmalarni tayyorlash va ishlatish  |
|  |  | Remont va demontaj qilishda eski futerovkani ehtiyotkorlik bilan olib tashlash   |
|  |  | Jarayonda shikast keltirmasdan yangi g'isht terish uchun yuzani tayyorlash   |
|  |  | Jamoada boshqa ustalar bilan muvofiqlashtirilgan holda ishlash   |
|  |  | Xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish   |
|  |  | Ish joyida tozalik va tartibni saqlash   |
|  |  | Birgalikda og'ir yoki katta konstruksiyalarni ko'tarish va joylashtirish   |
|  |  | <b>Bilimlar:</b>   |
|  |  | Futerlovchi g'ishtlarning turlari va xossalarini   |
|  |  | Terish uchun keltirilgan futerlovchi g'ishtlarni sifatini tekshirish tartibi   |
|  |  | Qurilish va montaj ishlarida ruletk, nivelir, shtangensirkul kabi asboblardan foydalanish texnologiyalari  |

|  |  |  |
|--|--|--|
|  |  | Geometriya, burchaklar va radiuslar hisob-kitoblari  |
|  |  | Qurilish rasmlari va sxemalarini o'qish qoidalari  |
|  |  | Chizmalarda ko'rsatilgan o'lchamlar, materiallar va terish sxemalari   |
|  |  | Izolyatsiya materiallari turlari va qo'llash texnologiyasi   |
|  |  | G'isht terishda turli xil terish usullari: to'g'ri terish, zinama-zina, "archa" shaklida terish texnologiyasiga ko'ra bajarish qoidalari |
|  |  | Issiq muhitda, yuqorida yoki tor joylarda ishlashda xavfsizlik choralari   |
|  |  | Deformatsiya va yoriqlarning oldini olish tartibi  |
|  |  | Kasbga mos kiyim, ko'zoynak, qo'lqop, nafas olish vositalari bilan ishlash qoidalari   |
|  |  | Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalari   |
|  |  |  |
|  |  | 2. Zarur bo'lganda, muammolarni hal qilish uchun mustaqil qarorlar qabul qilish  |
| <b>Texnik va/yoki texnologik talab</b> |  | Qo'l asboblari, elektr asboblari, o'lchash va sinov uskunalari, yordamchi asboblari narvonlar, maxsus asboblari                          |

|  |   |                       |
|--|---|-----------------------|
| Kasbning nomi:   | Izolyatsiyalovchi-g'isht teruvchi   |                       |
| Mashg'ulot nomining kodi:                                  | 71240   |                       |
| TMR bo'yicha malaka darajasi:                              | 3   |                       |
| Malakani baholashga qo'yiladigan talablar                  | Tavsiya etiladi   |                       |
| Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:           | Izolyatsiyalovchi-g'isht terish bo'yicha 2 oydan kam bo'lmagan tajriba talab etiladi.   |                       |
| Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar | <p>18 yoshga to'lgan shaxslar ishlashga ruxsat etiladi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda majburiy dastlabki (ishga kirishda) va davriy tibbiy ko'rikdan (tekshiruvdan), shuningdek navbatdan tashqari tibbiy ko'rikdan (tekshiruvdan) o'tish. Ishlab chiqarish faoliyatiga xalaqit beradigan doimiy kasalliklar yoki nogironlikning mavjud emasligi. Mehnatni muhofaza qilish talablari bo'yicha o'qishda qatnashish va bilimlarini sinovdan o'tkazish, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnomada qatnashish, ish joyida malaka oshirish va mustaqil ishlash uchun ruxsat olish. Xavfsizlik texnikasi talablari bo'yicha o'qish va bilimlarni sinovdan o'tkazish. Tegishli dasturga muvofiq yong'in xavfsizligi talablari va yong'in-texnik minimumi bo'yicha o'qish va bilimlarni sinovdan o'tkazish. Texnik ekspluatatsiya qoidalarini talablari bo'yicha o'qish va bilimlarni sinovdan o'tkazish. Tegishli nazariy va amaliy mashg'ulotlardan so'ng bilimlarni sinovdan o'tkazish. Belgilangan me'yorlar va talablarga muvofiq maxsus kiyim va boshqa shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalariga rioya qilish. Balandlikda ishlar olib borilgan taqdirda balandlikda ishlashga ruxsatning mavjudligi.</p> |                       |
| Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:                      | Boshlang'ich professional ta'lim  |                       |
| Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:             | 1)O'rta maxsus ta'lim<br>2)Umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba   |                       |
| Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:                   | -   |                       |
| Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:                    | -   |                       |
| Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:                         | <b>TMR bo'yicha malaka darajasi:</b>  | <b>Kasbning nomi:</b> |
| <b>Mehnat funksiyalarining tavsifi</b>                     |   |                       |
| <b>Kodi va nomi</b>  | <b>Mehnat vazifalari</b>  |                       |
|  | <b>O'qitish natijalari</b>  |                       |
|  | <b>Mehnat harakatlari:</b>  |                       |
|  | 1. Ish joyini tayyorlash, zarur asbob-uskunalarini tayyorlash.  |                       |

|   |   |   |
|---|---|---|
| <p>E1.3-<br/>Korroziyaga qarshi himoya qoplamalari tizimlari yuzasini tozalash va tayyorlash bo'yicha ishlarni bajarish</p> | <p>E1.01.3-<br/>Korroziyaga qarshi himoya qoplamalari yuzasini tozalash bo'yicha oddiy va o'rta murakkablikdagi ishlar uchun materiallarni tayyorlash va izolyatsiyalovchi-g'isht terish ishlarini bajarish</p> | <p>2. Izolyatsiya qoplamalari samarali bo'lishi uchun konstruktsiya yuzasini tozalash, tayyorlash va zarur holatda ta'mirlash.</p> <p>3. Izolyatsiyaning sifatini tekshirish va talablarga muvofiqligini ta'minlash.</p> <p>4. Bino va inshootlar konstruktsiyalarining yuzasini izolyatsiyalash uchun maxsus materiallar (perxlorvinil yoki bitumli qoplamalar) tayyorlash va qo'llash.</p> <p>5. Izolyatsiya qoplama materiallarini belgilangan texnologiyaga muvofiq ravishda qo'llash.</p> <p>6. Barcha turdagi maxsus zamazkalar (qoplovchi moddalar), beton aralashmalari, bitum mastikalari va laklarni mexanik usulda tayyorlash.</p> <p>7. Plitka va g'ishtlarni sifati va o'lchamiga qarab saralash.</p> <p>8. Rulon materiallar yordamida vertikal va gorizontal yuzalarni yuqori tomondan yopish.</p> <p>9. Metall yuzalarni kimyoviy tozalash.</p> <p>10. Metall va beton yuzalarni bitumli laklar bilan qoplash.</p> <p>11. Yuzalarni silikat yechimlari bilan bo'yash va shpaklyovka qilish.</p> <p>12. Eski futerovkani yechib tashlash.</p> <p>13. Oblitsovka, futerovka va bo'yash ishlari uchun yuzalarni tayyorlash</p> <p>14. Tekis (ploskaya) yuzalarni kislotaga chidamli zamazkalarda plitka va boshqa materiallar bilan qoplash</p> <p>15. Plitka, g'isht, keramik tosh va bloklar bilan tekis hamda har xil egiluvchan yuzalarni qoplash.</p> <p>16. Turli fasonli keramik materiallar bilan yuzalarni qoplash</p> <p>17. Barcha turdagi yuzalarni turli fasonli keramika, sement, bitumli mastika va organik smolalar asosida qoplash.</p> <p>18. G'isht va katta o'lchamli keramik bloklardan minora uskunalari va tom qismlarini montaj qilish.</p> <p>19. Noxush holatlarda zudlik bilan rahbarga xabar berish va xavfsizlik choralari ko'rish</p> <p>16. Ish joyini ozoda qilish va xavfsiz holatga keltirish.</p> <p>20. Asbob-uskunalar bilan ishlaganda hamda yuklarni ko'tarish, uzatishda mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish.</p> |
|---|---|---|

|  |   |
|--|---|
|  | 21. Shaxsiy himoya vositalaridan (SHHV) foydalanish – (kaska, qo‘lqop, rezina botinka, himoya ko‘zoynak)  |
|  | <b>Ko‘nikmalar:</b>   |
|  | Ish joyini belgilangan xavfsizlik talablariga muvofiq tayyorlash.   |
|  | Ishchi jarayonida asbob-uskunalardan xavfsiz foydalanish.   |
|  | Qo‘l va mexanik vositalar (shpatel, skrebok, щyotka va boshqa) bilan yuzani toza qilishni bilish.   |
|  | Qurilishda keng tarqalgan yuza tozalash usullarini loy va changni tozalash, kir, yog‘ va boshqa chiqindilarni ketkazishni amalga oshirish.            |
|  | Qurilishda o‘chirish vositalari, havo bosimi bilan ishlaydigan qurilmalardan (pnevmatik щyotkalar, turli xil apparatlari) oddiy darajada foydalanish. |
|  | Yuzani tozalashda ishlatiladigan kimyoviy reagentlar va ularning xavfsizlik choralarini tushunish.  |
|  | Kimyoviy moddalarni qo‘llash va yuzani yuvish jarayonini amalga oshirish.   |
|  | Tozalash jarayonidan keyin yuzaning holatini vizual baholash, yoritish, yorug‘likda yoki maxsus asboblardan yordamida tekshirish.                     |
|  | Korroziya, chirish, tozalanmagan qismlarni aniqlash.  |
|  | Tozalash jarayonida shaxsiy muhofaza vositalarini (qo‘lqop, niqob, ko‘zoynak va boshqalar) to‘g‘ri qo‘llash.  |
|  | Yuzani tozalashda ishlab chiqarish xavflaridan ogoh bo‘lish va ulardan saqlanish.   |
|  | Yuzani tozalash orqali korroziyaga qarshi qoplamalarni olish uchun zarur bo‘lgan tozalik darajasini ta‘minlash.                                       |
|  | Balandlikda va tor joylarda ishlash uchun maxsus asboblardan foydalanish  |
|  | Ish bajarishda texnika xavfsizligi talablariga rioya qilish   |
|  | Mehnat vazifalariga to‘g‘ri yondashish va ishni to‘g‘ri tashkil etish.  |
|  | Mutaxassislar (qurilish, texnik, muhandis) bilan hamkorlikda ishlash.   |
|  | <b>Bilimlar:</b>  |
|  | Qo‘l va mexanik (mexanizatsiyalashtirilgan) tozalash usullarini bilish – shpatel, metall  |

|   |   |  |
|---|---|--|
|   |   | shyotka, abraziv qog'oz va boshqalar qo'llash usullari   |
|   |   | Tozalash uchun ishlatiladigan abraziv moddalar (qum, metall zarrachalar va boshqalar) turlari va xususiyatlari.                      |
|   |   | Turli metall va beton yuzalarning korroziyasi, chirish jarayoni va tozalash talablari.   |
|   |   | Kimyoviy moddalar (erituvchilar, neytralizatorlar)ning tarkibi, ta'siri va ular bilan ishlashda xavfsizlik qoidalari.                |
|   |   | Tozalash uchun ishlatiladigan moddalar (qum, metall zarrachalar va boshqalar) turlari va xossalari.                                  |
|   |   | Uskunalarni to'g'ri tanlash va tozalash maqsadida ularni samarali qo'llash tartibi   |
|   |   | Tozalashdan keyingi yuzaning vizual va asbob-uskuna orqali holatini baholash tartibi   |
|   |   | Xavfsiz ish o'rnini yaratish bo'yicha talablar   |
|   |   | Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish tartibi (ish kiyimi, qo'lqop, oyoq kiyim, ko'zoynak, kaska bilan ta'minlanganligi va h.k.). |
|   | E1.02.3-<br>Hajmi cheklangan oddiy va o'rta murakkablikdagi yuzalarga korroziyaga qarshi himoya qoplamalari tizimini qo'llash | <b>Mehnat harakatlari:</b>   |
|   |   | 1. Yuzaning tayyorlashda yuzani kir, zang, yopishgan moddalardan tozalash.   |
|   |   | 2. Zarur hollarda mexanik yoki kimyoviy usulda zangdan tozalash.   |
|   |   | 3. Yuzaning quriqligini va tozaligini tekshirish.  |
|   |   | 4. Korroziyaga qarshi maxsus grunt (modda) ni teng va yuqori sifatda surtish.  |
|   |   | 5. Qoplama materiallarini (bitum, epoksid, poliuretan va h.k.) izolyatsiya materiallarini tayyorlash.                                |
|   |   | 6. Ishlatish vaqtida ularning saqlash va tayyorlash qoidalariga rioya qilish.  |
|   |   | 7. Valik, cho'tka yoki maxsus uskunalar yordamida qoplamani yuzaga qo'llash.   |
|   |   | 8. Qatlamlarni ko'rsatilgan soniyalar va vaqt ichida yopishtirish.   |
|   |   | 9. Qoplama tegishli qalinlikda va jipsligini ta'minlash.   |
| 10. Olovga chidamli yoki kimyoviy moddalariga chidamli izolyatsiya g'ishtini terish.                    |   |  |
| 11. Qurilishda izolyatsiya maqsadida foydalaniladigan g'ishtlarni tegishli o'lchamda va holatda terish. |   |  |
| 12. G'ishtlarni tegishli holda yopishtirish uchun izolyatsiyalash materiallari bilan ishlash.           |   |  |

|  |  |  |
|--|--|--|
|  |  | 13. Korroziyaga qarshi himoya qoplamalarini qo'llash maqsadida yuzani tayyorlash bo'yicha yuqori darajadagi murakkab ishlarni bajarish |
|  |  | 14. Shovurlarni maxsus qoplamalar bilan to'ldirish. (agar kerak bo'lsa)  |
|  |  | 15. Qoplama qalinligini tekshirish.  |
|  |  | 16. Yoriqlar, ko'piklar, ajralishlar bor-yo'qligi sifatni nazorat qilish.  |
|  |  | 17. Himoyalangan muhitda ventilyatsiya va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish.  |
|  |  | 18. Baland joyda ishlayotganda jips bog'lanish vositalari himoya belbog'laridan foydalanish  |
|  |  | 19. Mehnat muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablari va me'yorlariga rioya qilish  |
|  |  | <b>Ko'nikmalar:</b>  |
|  |  | Yuzani tozalash, quritish va qoplama uchun tayyor holatga keltirish  |
|  |  | Qoplamalar turlari (bitum, epoksid, poliuretan va h.k.) qanday sharoitda ishlatiladi — shularni ajrata olishi.                         |
|  |  | Valik, cho'tka, maxsus qurilmalar yordamida tegishli qalinlikda, tegishli qatlamlar bilan ishlash                                      |
|  |  | Izolyatsion g'ishtlarni loyihadagi talablar asosida to'g'ri va mustahkam terish.   |
|  |  | G'ishtlar orasidagi shovurlarni izolyatsion modda bilan to'ldirish, uning sifatini ta'minlash.   |
|  |  | Qoplama qalinligini tekshirishda qurilish chizmalari va talablarga muvofiq keluvchi qoplamani to'g'ri o'lchay olish.                   |
|  |  | Yoriqlar, havo pufaklari, notekis yuza kabi nuqsonlarni ko'ra olish va to'g'rilash defektlarni aniqlash va bartaraf qilish             |
|  |  | Korroziyaga qarshi moddalarning inson organizmiga zararini tushunish   |
|  |  | Qoplamalarni surtishga mo'ljallangan valiklar, shpatel, aralashtiruvchi qurilmalarni to'g'ri qo'llash.                                 |
|  |  | Boshqa mutaxassislar (muhandislar, texnik ustalar nazoratchilar) bilan hamkorlikda ishlash.  |
|  |  | Balandlikda va yopiq joylarda ishlash uchun xavfsiz ish uslubini bilish.   |
|  |  | Mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish — shaxsiy himoya vositalaridan (qo'lqop, ko'zoynak, oyoq kiyim va h.k.) foydalanish        |
|  |  | <b>Bilimlar:</b>   |
|  |  | Qoplama qo'llashdan oldin yuzani mexanik, abraziv yoki kimyoviy usullar  |

|  |   |
|--|---|
|  | <p>Qoplama surtish usullari (qo'l bilan yoki uskunalar yordamida), qoplama qalinligi, quritish vaqti va muhit sharoiti.</p> <p>Metall va beton yuzalarda korroziya qanday rivojlanadi, uning oqibatlari va oldini olish usullari</p> <p>Texnik chizmalar, konstruksiya sxemalarini o'qish va talqin qilish tartibi</p> <p>Izolyatsion g'ishtlarni markasi va sarfini aniqlash usullari.</p> <p>Izolyatsion g'ishtlarni kesish va arralash usullari.</p> <p>Izolyatsion g'ishtlarni terish tartibi</p> <p>Izolyatsiya g'ishti turlari va ularning xossalari (shamot, kislotaga chidamli, olovbardosh g'ishtlar).</p> <p>Bajarilgan ishlarning sifatiga qo'yiladigan talablar.</p> <p>Qorishma (rastvor)lar turlari va ularni tayyorlash tartibi.</p> <p>Issiq muhitda, balandlikda yoki yopiq joyda ishlash xavflari.</p> <p>Xavfsiz ish o'rnini yaratish bo'yicha talablar</p> <p>Balandlikda va yopiq joylarda ishlashda xavfsizlik qoidalari</p> <p>Shaxsiy himoya vositalari (qo'lqop, kaska, ko'zoynak va h.k.) bilan ishlash tartibi.</p> <p>Bitumli qoplamalar materiallarining turlari va xususiyatlari.</p> <p>Izolyatsion laklar, mastika va pastalar ularning kimyoviy bardoshligi, issiqlikka chidamliligi va qo'llanilishi qoidalari</p> <p>G'ishtlarni terishda turli (chokli, shaxmat, yarim burchakli) uslublar</p> <p>G'isht va izolyatsiya materiallari olovga, kimyoviy ta'sirga yoki sovuqqa chidamli qoplamalar va yopishtiruvchi eritmalar va ularning xususiyatlari</p> <p>Qoplama sistemalarining texnologiyalik kartasi va texnika talablari</p> <p>Qoplama qalinligini o'lchash, sifatli terish va shovur to'ldirishning texnik ko'rsatkichlari.</p> <p>Defektlarni aniqlash: yoriqlar, ajralish, havo pufaklari kabi nuqsonlar</p> <p>Shaxsiy himoya vositalari (ish kiyimi, qo'lqop, oyoq kiyim, ko'zoynak, nafas niqobi, kaska, respirator va h.k.)</p> |
|  | <p><b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b></p> <p>1. Korroziyaga qarshi qoplama materiallarini texnologik yo'riqnomalarga muvofiq tayyorlash va qo'llash</p>  |

|  |   |  |
|--|---|--|
|  |   | 2. Ish jarayonida mehnat muhofazasi, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilish                                 |
|  |   | 3. Yuzaning holatini baholash, uni tozalash, silliqlash va qoplama uchun tayyorlash ishlarini belgilangan tartibda amalga oshirish |
| E2.3-<br>Konstruksiyalar va inshootlarni izolyatsiyalash, ularni ta'mirlash va almashtirish ishlarini bajarish | E2.01.3-<br>Izolyatsiya ishlarini qo'l bilan va mexanizatsiyalashtirilgan usulda bajarish | <b>Mehnat harakatlari:</b>   |
|  |   | 1. Qo'l bilan ish joyini tozalash va tayyorlash (beton, metall, devor, quvur va boshqalar).  |
|  |   | 2. Izolyatsiya materiallarini (plita, rulon, mastika va h.k.) o'lchamga ko'ra kesish   |
|  |   | 3. Qo'lda yopishqoq moddalarni tayyorlash (mastika, qoplama va boshqa).  |
|  |   | 4. Qo'lda izolyatsiya materialini yuzaga joylash va bosish.  |
|  |   | 5. Rulonli izolyatsiya materialini yo'naltirish va yopish.   |
|  |   | 6. Qoplama materiallarini qo'lda bosim bilan mustahkamlash.  |
|  |   | 7. Ulam joylarini qo'lda pichoq, molga yordamida birlashtirish.  |
|  |   | 8. Izolyatsiyalangan yuzalarni tekshirish va nosozliklarni tuzatish.   |
|  |   | 9. Kichik hajmdagi izolyatsiya qismlarini qayta o'lchash va qayta o'rnatish.   |
|  |   | 10. Mexanizatsiyalashtirilgan usulda elektr qaychi yoki pichoqlar bilan izolyatsiya materialini tez va aniq kesish.                |
|  |   | 11. Mexanik yopishqoq materiallar qo'llash qurilmalari bilan mastika surtish.  |
|  |   | 12. Gaz yoki havo yordamida yopishishini ta'minlovchi qurilmalardan foydalanish (fenlar, qizitish uskunalari).                     |
|  |   | 13. Izolyatsiya materiallarini avtomat mashinalar yordamida o'rnatish.   |
|  |   | 14. Podyomnik, kran yoki manipulyatorlar yordamida og'ir izolyatsiya modullarini ko'tarish va joylashtirish.                       |
|  |   | 15. Yuzani tayyorlash uchun mexanik shlifovkalagichlardan foydalanish.   |
|  |   | 16. Shaxsiy himoya vositalaridan (ish kiyimi, qo'lqop, oyoq kiyim, ko'zoynak, nafas niqobi va h.k.) bilan ta'minlanganligi.        |
|  |   | <b>Ko'nikmalar:</b>  |
|  |   | Qo'l bilan bajariladigan molga, pichoq, shpatel, metr, cho'tka va boshqa qo'l asboblardan to'g'ri foydalanish.                     |
|  |   | Asboblarni ehtiyotkorlik bilan saqlash va ularni to'g'ri foydalanish.  |

|  |  |   |
|--|--|---|
|  |  | Turli izolyatsiya materiallarini (shisha paxta, mineral plita, rulonli materiallar, mastika va h.k.) ajrata olish bilish va ularga mos ish usulini tanlash. |
|  |  | Izolyatsiya materiallarini to'g'ri o'lchash, kesish va joylash.   |
|  |  | Izolyatsiyalanadigan yuzani tozalash, xususan, changi va yog'lardan tozalash.   |
|  |  | Balandlikda, tor joylarda va turli ob-havo sharoitida ishlash qobiliyati.   |
|  |  | Uzoq vaqt davomida takroriy harakatlarni bajara olish.  |
|  |  | Mexanik uskunalarda kley surtuvchi mashinalar, fenlar, mexanik qaychilar bilan ishlash.   |
|  |  | Mexanizatsiyalashtirilgan uskunalardan foydalanish uskunalarini sozlash, tekshirish va ular bilan xavfsiz ishlash usullarini bilish.                        |
|  |  | Elektr, gaz, bosim ostidagi uskunalar bilan ishlashda xavfsizlik choralarini ko'rish  |
|  |  | Shaxsiy himoya vositalaridan (ish kiyimi, qo'lqop, oyoq kiyim, ko'zoynak, nafas niqobi va h.k.) to'g'ri foydalanish.  |
|  |  | Asbob uskunalarining ishlash holatini kuzatish, nosozlikni erta aniqlash va diagnostika qilish.   |
|  |  | Kichik texnik ta'mirlash ishlarini amalga oshira olish.   |
|  |  | Kerakli miqdorda material va asboblarni tayyorlash.   |
|  |  | Yo'riqnoma bilan tanishish va jurnalga imzo qo'yib tasdiqlash.  |
|  |  | Jamoa bilan boshqa ustalar, muhandislar va nazoratchilar bilan hamkorlikda ishlash.   |
|  |  | <b>Bilimlar:</b>  |
|  |  | G'isht, bloklar, sement, yer osti va yer usti izolyatsiya materiallari (penopo-listirol, mineral paxta, penobeton va boshqalar) xususiyatlarini bilish.     |
|  |  | Izolyatsiya materiallarining qo'llanilish sohalari va uzoq muddatli samaradorligi haqida tushuncha.   |
|  |  | Issiqlik, sovuqlik, ovoz va namlikdan himoya qilishdagi turli izolyatsiya turlari.  |
|  |  | Qatlamli devor tizimlarida izolyatsiya qo'llash qoidalari.  |
|  |  | Arxitektura va konstruksiyaviy chizmalarni tushunish va ular asosida ish bajara olish.  |
|  |  | Xavfsizlik texnikasi qoidalar rioya etish.  |

|  |  |  |
|--|--|--|
|  |  | <p>Mexanizatsiyalashtirilgan uskunalar g'isht qo'yish uchun mo'ljallangan maxsus mexanizmlar, liftlar, mikserlar, izolyatsiya moslamalari bilan ishlash foydalanish qoidalari</p> <p>Qo'l bilan turli usullarda (burchakli, to'g'ri, ip bilan, gorizonta va vertikal shovlar bilan) g'isht terishni bilish.</p> <p>Izolyatsion materiallarni burchak, devor, tom, pol kabi joylarga to'g'ri o'rnatishni bilish.</p> <p>Maxsus kley yoki mexanik bog'lovchi vositalar bilan o'rnatish texnikasi.</p> <p>G'isht qo'yuvchi stanoklar, pichoqli uskunalar, izolyatsiya cho'zuvchi yoki quritish qurilmalari bilan ishlash.</p> <p>Xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilish.</p> <p>Balandlikda ishlash qoidalari.</p> <p>Elektr qurilmalar bilan ishlashda ehtiyot choralari.</p> <p>Shaxsiy himoya vositalari (kaska, qo'lqop, ko'zoynak, maska va b.)dan to'g'ri foydalanish.</p>  |
|  | <p>E2.02.3-<br/>Izolyatsiyani ta'mirlash va almashtirish bo'yicha ishlarini bajarish</p> | <p><b>Mehnat harakatlari:</b></p> <p>Ishga tayyorgarlik bo'yicha ish joyini tekshirish, xavfsizlik talablarini ta'minlash.</p> <p>Kerakli qurol-asboblarni (bolg'a, kelma, kirka, uroven, shpatel, loy tayyorlash idishlari) va materiallarni (qurilish g'ishti, izolyatsiya materiallari, yopishtiruvchi qo'shimchalar) tayyorlash.</p> <p>Ish joyini tozalash — eski g'ishtlar, chang, qoplamalarni olib tashlash.</p> <p>Eski izolyatsiyalovchi g'ishtlarni ehtiyotkorlik bilan urib, chiqarib olish.</p> <p>Yaroqli izolyatsiya g'ishtlarini demontaj qilish.</p> <p>Chiqarilgan materiallarni saralash (qayta ishlatish mumkin bo'lgan).</p> <p>Ish joyini tozalash.</p> <p>Qum-sement yoki maxsus terish aralashmasida qoplamalarni tayyorlash (agar texnologik talab bo'lsa, maxsus qoplamalar — shamot, kislotaga chidamli aralashma va h.k.).</p> <p>G'ishtlarni qatoriga qarab to'g'ri terish (odatda romb, shaxmat, yoki qavatli usulda).</p> <p>Har bir g'ishtni (izolyatsiyalovchi) tekis va to'g'ri o'rnatish, aralashmani to'g'ri qo'llash.</p> <p>Uroven va shtangensirkul bilan to'g'rilikni nazorat qilish.</p> <p>G'ishtlar orasidagi bo'shliqlarni to'ldirish.</p> |

|  |                                   |  |
|--|-----------------------------------|--|
|  |                                   | Himoya qoplamalarini o'rnatish (agar zarur bo'lsa).  |
|  |                                   | Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish: qo'lqop, ko'zoynak, nimcha, niqob.                                     |
|  |                                   | Balandlikda ishlaganda texnika xavfsizligi talablarga rioya qilish.  |
|  |                                   | Ish vaqtida havo ventilyatsiyasini ta'minlash (ayniqsa pechlarda ishlanayotganda).                               |
|  |                                   | Elektr uskunalari to'g'ri va xavfsiz ishlaganda xavfsizlik va texnika qoidalariga rioya qilish.                  |
|  | <b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b> | 1. Ish joyida mehnat muhofazasi qoidalariga qat'iy rioya qilish, o'zini va hamkasblarini ehtiyot qilish.         |
|  |                                   | 2. Balandlikda ishlashda tushishdan saqlovchi vositalar (belbog', tor) talab qilish.                             |
| <b>Texnik va/yoki texnologik talab</b> |                                   | Qo'l asboblari, elektr asboblari, o'lchash va sinov uskunalari, yordamchi asboblari narvonlar, maxsus asboblari. |

## V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

### 5.1. Kasbiy standartning rekvizitlari

|    |   |  |
|----|---|--|
| 1. | Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining tasdiqlash hujjatlari: | Qurilish, uy-joy kommunal xo'jaligi va qurilish materiallari sanoati sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining 2026-yil 26-yanvardagi 3-son bayoni |
| 2. | Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining xulosasi:                         | KS-0030-son xulosa, 03.02.2026   |
| 3. | Kasbiy standart talqini va ishlab chiqilgan sanasi:                                   | 1.0-talqin, 30.01.2026   |
| 4. | Taxminiy qayta ko'rib chiqish sanasi:   | 29.01.2031   |

### 5.2. Kasbiy standartni ishlab chiqishga mas'ul tashkilot

#### Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi

(tashkilot nomi)

**Vazir o'rinbosari**

**D.Adilov**

(rahbarning lavozimi, imzosi va F.I.O)

### 5.3 Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxonalar)lar to'g'risida ma'lumot

| T/r | Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot   |                                  |
|-----|--|----------------------------------|
|     | Ish joyi va lavozimi   | Familiyasi, ismi, otasining ismi |
| 1   | Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi hukumat topshiriqlari ijrosini ta'minlash bo'limi bosh mutaxassisi | Normatov Sh.                     |
| 2   | Toshkent arxitektura-qurilish universiteti professori  | Xabibullayev Sh.                 |
| 3   | Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti professori  | Maxmatkulov T.                   |
| 4   | Olmaliq qurilish va kommunal xo'jaligi texnikumi o'qituvchisi  | Jo'rayev I.                      |
| 5   | Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tarmoq kengashi kotibi   | Iskandarov N.                    |
| 6   | "TREST-12" AJ 2-MKK bosh muhandisi   | Najmiddinov J                    |
| 7   | "United-building" MCHJ bosh direktori  | Shahriddinov O.                  |
| 8   | "Murad Buildings" MCHJ kadrlar bo'limi boshlig'i   | Alimov M.                        |
| 9   | "Add-estates" MCHJ kadrlar bo'limi boshlig'i   | Saydaliyeva B.                   |



**QURILISH, UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI VA QURILISH  
MATERIALLARI SANOATI SOHALARIDA KASBIY MALAKALARNI  
RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA TARMOQ KENGASHI**

**KASBIY STANDART  
QURILISHDA G‘ISHT-TOSH TERUVCHILAR**